SHARTNOMA ERKINLIGI TAMOYILINING HUQUQIY MOXIYATI

Lutfullaev Mirzoxid Saloxitdinovich,
IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada fuqarolik huquqining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan shartnoma erkinligi tamoyilining huquqiy mohiyati, xalqaro va milliy qonunchilikdagi o‘rni hamda bozor iqtisodiyoti sharoitidagi amaliy ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni huquqiy tartibga solish masalalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *shartnoma erkinligi, fuqarolik huquqi, bozor iqtisodiyoti, huquqiy munosabatlar, taraflar ixtiyori.*

ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ ПРИНЦИПА СВОБОДЫ ДОГОВОРА

Лутфуллаев Мирзохид Салохитдинович
независимый исследователь Академии МВД

Аннотация: *В статье анализируется правовая сущность принципа свободы договора как одного из основополагающих принципов гражданского права. Раскрывается его значение и место в системе международного и национального законодательства, а также его практическая роль в условиях рыночной экономики. Особое внимание уделяется проявлению автономии воли сторон в договорных правоотношениях, пределам свободы договора и соотношению частных*

и публичных интересов. Рассматриваются проблемы, возникающие в процессе реализации прав и обязанностей сторон договора, а также вопросы их правового регулирования.

Ключевые слова: *свобода договора, гражданское право, рыночная экономика, договорные правоотношения, воля сторон.*

THE LEGAL ESSENCE OF THE PRINCIPLE OF FREEDOM OF CONTRACT

Lutfullaev Mirzoxid Salokhitdinovich
Independent Researcher, Academy of the Ministry of Internal Affairs

Abstract: *This article examines the legal essence of the principle of freedom of contract as one of the fundamental principles of civil law. It analyzes the role and significance of this principle in both international and national legal systems, as well as its practical application under the conditions of a market economy. Particular attention is paid to the manifestation of the parties' autonomy of will in contractual relations, the limits of contractual freedom, and the balance between private interests and public regulation. The study also addresses existing legal challenges arising in the exercise of contractual rights and obligations and considers issues related to their effective legal regulation.*

Keywords: *freedom of contract, civil law, market economy, contractual relations, autonomy of will.*

Bozor iqtisodiyotining jadal rivojlanishi sharoitida shartnomaviy munosabatlar fuqarolik muomalasining asosiy mexanizmiga aylandi. Ayni shu sharoitda shartnoma erkinligi prinsipi iqtisodiy munosabatlarning barqarorligi

va huquqiy aniqligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu prinsip ishtirokchilarga o‘z xohish-irodasiga ko‘ra shartnoma tuzish, uning turini, shartlarini va kontragentni tanlash imkoniyatini beradi.

Shartnoma erkinligi tamoyilining asoslari ham xalqaro huquq normalarida, ham milliy qonunchilikda mustahkamlangan. Mazkur tamoyilga ko‘ra, hech kim boshqa shaxsni shartnoma tuzishga majbur qila olmaydi. Shuningdek, taraflar shartnoma tuzish yoki tuzmaslik, uning turini tanlash, mazmuni, maqsadi va shartlarini mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega.

Shartnoma erkinligi prinsipining ildizlari tabiiy huquq nazariyasiga borib taqaladi. U inson irodasi, shaxsiy avtonomiya va mulkiy mustaqillik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq. Tarixiy jihatdan mazkur prinsip Rim huquqida keng qo‘llanilgan bo‘lib, ayniqsa, **stipulyatsiya** instituti orqali tomonlarning erkin iroda bildirishi asosida majburiyatlar yuzaga kelgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnoma erkinligi iqtisodiy munosabatlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadbirkorlik subektlari o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, hamkor tanlash, shartnoma shartlarini kelishish va iqtisodiy risklarni baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa raqobat muhitining shakllanishi va iqtisodiy faollikning oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, shartnoma erkinligi mutlaq xarakterga ega emas. Qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlar jamiyat va davlat manfaatlarini, shuningdek, zaif tomonlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

Shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish jarayonida turli huquqiy nizolar yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, shartnoma shartlarini noto‘g‘ri talqin qilish, majburiyatlarni bajarmaslik yoki suiiste’mol qilish holatlari amaliyotda ko‘p uchraydi. Shu sababli, shartnoma munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, qonunchilikka zamon talablariga mos o‘zgartirishlar kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda shartnoma erkinligiga quyidagilarni taxlil qilib chiqamiz misol uchun, shartnoma taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo‘llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi (taklifni qabul qilish) orqali tuziladi. Ya’ni, shartnoma tomonlarning o‘zaro kelishuvlari asosida tuziladi.

Oferta-Bir yoki bir necha muayyan shaxsga yuborilgan, yetarli darajada aniq bo‘lgan va taklifni kiritgan shaxsning o‘zini taklif yo‘llangan va uni qabul qiladigan shaxs bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifoda etadigan taklif oferta hisoblanadi.Ofertada shartnomaning muhim shartlari ifoda qilingan bo‘lishi kerak.

Oferta uni yo‘llagan shaxsni oferta yo‘llangan shaxs bilan u ofertani olgan paytdan boshlab bog‘laydi. Ofertani yo‘llagan shaxs ofertadan, shu jumladan, uning alohida shartlaridan bosh tortishga haqli emas, shuningdek, taklifning xususiyatini, taklif etilgan shartnoma tuzish shartlarini, ofertaning mazmunini tashkil etuvchi boshqa elementlarni o‘zgartirishi mumkin emas, faqatgina oferta oluvchiga ofertaning mazmuniga ta’sir ko‘rsatmaydigan qo‘shimcha axborotni xabar qilishi mumkin. Shu bilan birga, oferta yo‘llagan shaxs uni chaqirib olish choralarini ko‘rishi mumkin. Bunda agar ofertani chaqirib olish to‘g‘risidagi bildirish ofertaning o‘zidan oldin yoki u bilan bir vaqtda kelgan bo‘lsa, oferta olinmagan hisoblanadi. Tegishincha, bu shaxs endi o‘zi oferta jo‘natgan shaxs bilan bog‘liq hisoblanmaydi.

Aksept- Oferta yuborilgan shaxsning uni qabul qilganligi haqidagi javobi aksept hisoblanadi.

Aksept ofertaning shartlariga rozilik ifodasi bo‘lib, og‘zaki yoki yozma shaklda izhor etiladi. Bunda akseptning shartlari ofertadagi shartlar bilan to‘la mos kelishi shart. shartnomaviy majburiyat yuzaga kelishi uchun aksept ofertani yuborgan shaxsga bildirilishi shart.

Umumiy qoidaga ko‘ra, aksept shakli oferta shakliga bog‘liq, ya’ni oferta yozma shaklda yo‘llangan bo‘lsa, aksept ham yozma shaklda bo‘lishi

shart. Biroq ayrim holatlarda aksept tuzilgan deb hisoblanishi uchun ofertani olgan shaxsning sukut qilishi yetarli. Bunday holatlar qonunda ko‘zda tutilgan bo‘lishi, ish muomalasi odatlaridan kelib chiqishi yoki taraflarning avvalgi ish munosabatlaridan kelib chiqishi mumkin. Xususan, bank amaliyotida mijozlar odatda o‘z jamg‘armalariga belgilangan foiz miqdorining oshirilishiga sukut bilan rozi bo‘ladilar. Avvalgi ish munosabatlariga, masalan, tovarga buyurtmalarni yetkazib beruvchi hech qanday akseptsiz tovarni jo‘natib yuborish holatini ko‘rsatishi mumkin. Akseptning yana bir shakli oferta olgan shaxs tomonidan, agar qonunda boshqa qoida ko‘zda tutilmagan bo‘lsa yoki ofertaning o‘zida ko‘rsatilgan bo‘lmasa, konklyudent harakatlarning amalga oshirilishi hisoblanadi. Biroq bunday harakatlar aksept uchun o‘rnatilgan muddat ichida bajarilishi shart. Masalan, buyurtmachi ofertada ko‘rsatilgan shartlar asosida xizmatlar uchun oldindan to‘lovni amalga oshiradi yoki ofertada ko‘zda tutilgan muayyan ishlarni bajaradi. Konklyudent harakatlar yozma shakldagi, xuddi shu kabi og‘zaki shakldagi ofertalarga javoban amalga oshirilishi mumkin. Bu holda FKning 366-moddasiga muvofiq, bunday harakatlarni bajarish chog‘ida shartnomaning yozma shakliga rioya etilgan deb hisoblanadi.

Shunday kilib shartnoma erkinligi «qonunga zid bo‘lmagan va qonun bilan taqiqlanmagan barcha harakatlarga ruxsat etiladi» degan huquqiy paradigma asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ixtiyoriy (dispozitiv) normalar bilan bir qatorda, ishtirokchilar tomonidan o‘zgartirilishi yoki inkor etilishi mumkin bo‘lmagan imperativ normalar ham mavjud. Mazkur imperativ normalar, o‘z navbatida, taqiqlovchi va majburlovchi normalarga bo‘linadi hamda shartnoma erkinligining huquqiy cheklanishlarini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining xo‘jalik faoliyatini tartibga solish bo‘yicha qonunlar.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»
4. O’zbekiston Respublikasining Prezidentining qonuni
“O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo’yicha vakil to’g’risidagi” qonuni
5. Ibratov B. Tadbirkorlik huquqi. –Toshkent.: Moliya, 2001.
6. Z.O. Kuvandikov. Tadbirkorlik(biznes) huquqi. O‘quv qo‘llanma. SamDU 2023.